



“KONSTITUTSIYA”- ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Turdiqulova Maftuna Laziz qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Annonstatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining jamiyat hayotidagi o‘rni, uning erkin va farovon hayotni ta’minlovchi asosiy hujjat sifatidagi ahamiyati har jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, Konstitutsiyada belgilangan inson huquq va erkinliklari, fuqarolarning ijtimoiy himoyasi, davlatning adolatli boshqaruv tizimi hamda “inson qadri” tamoyilining zamonaviy islohotlardagi o‘rni yoritib berilgan. Xususan, Prezidentimizning ta’lim, mehnat, ijtimoiy himoya va shaxsiy erkinliklar kabi konstitutsiyaviy normalarning amaliy hayotga ta’siri haqida dalillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya va inson huquqlari, erkinlik va farovon hayot, ijtimoiy davlat, adolat tamoyili, demokratik jamiyat, qonun ustuvorligi, boshqaruv tizimi, “inson qadri” konsepsiyasi, konstitutsiyaviy islohotlar, fuqarolik jamiyati, shaxsiy huquqlar, ijtimoiy himoya.

Konstitutsiya – davlatning eng muhim siyosiy-huquqiy hujjati, jamiyat taraqqiyotining kafolati va har bir fuqaroning erkin, munosib hamda farovon hayot kechirishiga xizmat qiladigan poydevoridir. U nafaqat mamlakat boshqaruv tizimini belgilaydi, balki insonning qadr-qimmati, erkinligi va manfaatlarini eng oliy qadriyat sifatida himoya qiladi. “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi” degan, fikr aynan shundan dalolat beradiki, har bir insonning baxtli yashashi, adolatli jamiyat qurilishi hamda davlatning barqaror rivojlanishi asosiy qonunda o‘z ifodasini topadi.

Zero, Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: “....To‘la ishonch bilan aytish mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz



siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir. U hech kimga qaram bo‘lmasdan, erkin va ozod, tinch va osoyishta, farovon yashashning qonuniy kafolati bo‘lib kelmoqda. Bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish borasida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda”[1].

Avvalo, Konsitutsiya fuqarolarning eng asosiy huquqlarini mustahkamlab beradi. Inson qadrini ulug‘lash, uning sha’ni va huquqlarini himoya qilish davlatning oliy burchi sifatida belgilanadi. Konstitutsiyaning 29-moddasida qayd etilganidek, har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir[3].

Bundan tashqari, bosh qomusimizda vijdon erkinligi, ta’lim olish, mehnat qilish, yashash joyini tanlash, tibbiy xizmatdan foydalanish kabi huquqiy kafolatlar erkin va farovon hayotning ajralmas qismi sifatida talqin qilingan. Erkin yashash imkoniyati bo‘lmasa, farovonlikni tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu sababli, Konstitutsiya – insonning imkoniyatlarini kengaytiradi, uning salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyaning farovonlikka daxldor eng muhim jihatlaridan yana biri bu – ijtimoiy davlat tamoyilining mustahkamlanishi tamoyilidir. Davlatimiz rahbarining 2021-yil 7-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 29 yilligi” ga bag‘ishlangan tabrigida: “Ayni vaqtda biz Konstitutsiyamiz normalarini hayotga to‘la tatbiq etish, jamiyatda qonun va adolat ustuvorligini, inson huquq va manfaatlari, uning qadr-qimmatini yanada samarali ta’minlash borasida hali ko‘p ish qilishimiz kerakligini yaxshi tasavvur qilamiz”, deb, huquqiy davlatning muhim talablari haqida ta’kidlab o‘tilgan. [4, 30-56-b.]. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekistonda ijtimoiy masalalar davlat diqqat markazida turganidan dalolat beradi.



O‘zbekistondagi asosiy ijtimoiy masalalarga davlatning kam ta’minlagan qatlamlarini qo’llab-quvvatlash, aholining turmush darajasini oshirish, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish borasidagi ma’suliyatlari misol bo’la oladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining 50 foizi ijtimoiy sohaga sarf qilinmoqda. Bugungi kunda “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” kabi ijtimoiy himoya tizimlari yaratilganki, bu himoyalardan barcha fuqarolar foydalanishi mumkin. Yaqin yillardan beri universitet talabalari ichidan ushbu himoya tizimlaridan foydalanuvchi talabalarga yordam ko’rsatilmoqda.

Davlat tomonidan amalga oshirilgan keng islohotlarning davomi sifatida qaraluvchi 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlarda “inson qadri” konsepsiyasi markaziy o‘rin egalladi. Islohotlar natijasida yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va keksalar huquqlariga oid normalar kengaytirildi. Bu esa jamiyatning barcha qatlamlari uchun imkoniyatlar tengligini ta’minlab, farovon hayotga yo‘l ochadi. Prezident Sh. M. Mirziyoyev ham o‘z asarlarida xalq farovonligiga erishish davlat siyosatining bosh maqsadi ekanini qayd etgan: “Bizning bosh maqsadimiz – xalqimizga erkin, farovon va munosib hayot sharoitlarini yaratishdir”[2, 22-40-b.].

Oliy bosh qomusimizda adolatli va shaffof boshqaruv tizimi ham joy olgan. Hokimiyatlar bo‘linishi, sud mustaqilligi, qonun ustuvorligi kabi tamoyillar korrupsiyani kamaytiradi, jamiyatda tenglik va ishonchni ta’minlaydi. Adolat bo‘lgan joyda esa tinchlik, barqarorlik va farovonlik qaror topadi.

O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosining shaxsiy hayotida ham Konsitutsiya o‘rni beqiyosdir. Talabaning ta’lim olish huquqi, ishchining mehnat qilish huquqi, tadbirkorning mulk daxlsizligi, keksalarning ijtimoiy himoyaga bo‘lgan huquqi — bularning barchasi Konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalar asosida ta’minlanadi[5, 70-112-b.].

Asosiy qonun **inson huquq va erkinliklarini** eng yuqori qadriyat deb biladi. Unda yashash huquqi, so‘z va e’tiqod erkinligi, ta’lim olish, mehnat qilish, mulk huquqi, shaxsiy daxlsizlik kabi fundamental huquqlar kafolatlanadi. Yordamga



muhtoj qatlamlar, ayollar, bolalar, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari alohida himoya qilinadi. Konstitutsiya jamiyatda bag'rikenglik, tenglik, ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlaydi.

So'nggi yillarda, xususan 2023-yilda O'zbekiston Konstitutsiyasiga **keng ko'lamli o'zgartirishlar** kiritildi. Bu islohotlar natijasida Konstitutsiyaning mazmuni yangilanib, zamonaviy demokratik talablar bilan uyg'unlashtirildi. Jumladan: "inson – jamiyat – davlat" tamoyili asosiy g'oya sifatida kiritildi, ijtimoiy davlat konsepsiyasi mustahkamlandi, yerdan foydalanish, ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy himoya borasida yangi kafolatlar paydo bo'ldi. Mahalla institutining vakolatlari kengaytirildi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish tizimi kuchaydi.[6].

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiya nafaqat davlat tizimining huquqiy asoslarini belgilaydi, balki har bir fuqaroni himoya qiladigan qalqon, yo'lini yoritadigan chiroq va kelajagini belgilaydigan bosh hujjatdir. Demak, har bir fuqaro o'zining bugungi farovon hayoti va ertangi kuniga bo'lgan ishonchini Konstitutsiyaga tayanib shakllantiradi.

Konstitutsiya O'zbekistonning barcha qonunlari, qarorlari va davlat siyosatining huquqiy poydevorini tashkil etadi. U milliy davlatchilikni mustahkamlash, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, davlat organlari faoliyatiga huquqiy mezonlar belgilash orqali jamiyatda barqarorlik va rivojlanishning asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan marosimidagi nutqi. www.lex.uz internet sayti
2. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon hayot sari. Toshkent. O'zbekiston. 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. O'zbekiston. 2023.
4. Xudoyorov M. Inson huquqlari va erkinliklari. Toshkent. "Fan va texnologiya". 2021.



5. Jo‘rayev T., Sattorov A. Konstitutsiyaviy huquq. Toshkent. Adolat. 2020.
6. www.lex.uz internet sayti